

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK
TA’MINLASH” KAFEDRASI**



**ISMOIL XAYDAROV
XAZRAT JABBOROV**

AMALIY PSIXOLOGIYA (darslik)



Toshkent 2024

I.O.Xaydarov, X.X.Jabborov Amaliy psixologiya darslik – T., 2024. – 368 b.

Mazkur darslik soha vakillari va xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash yo'nalishi kursantlari uchun psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati, amaliy psixologiyaning nazariy metodologik asoslari, amaliy psixologiya kasbiy faoliyat sifatida, amaliyotchi psixologning boshqa soha mutaxassisilari bilan o'zaro hamkorligi, amaliyotchi psixologning shaxsi va kasbiy faoliyatining modeli, amaliyotchi psixolog faoliyatining kasbiy axloqiy tamoyillari, psixodiagnostika amaliyotchi psixologning amaliy faoliyati uchun asos sifatida, ta'lim muassasida psixolog faoliyatining mazmuni va shakllari, psixokorreksiya ta'lim muassasalarida amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga psixologik yordam, psixologik buzilishlarga ega shaxslarga psixologik yordam, notinch oilalarga psixologik yordam, psixologik treninglar, shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo'lgan psixologik jarayonkabi eng so'ngi ma'lumotlar bayon etilgan.

Darslik soha vakillari va xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash yo'nalishi kursantlari, magistratura ta'lim yo'nalishi uchun "Amaliy psixologiya" fanidan tavsiya etiladi. Shuningdek mazkur odarslikda doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, maktab psixologlari va ushbu sohaga qiziquvchi barcha soha vakillari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh. Abdullayeva - Toshkent Davlat sharqshunoskil universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor

D.Arzikulov - O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti xizmat faoliyatini tarbiyaviy- psixologik ta'minlash kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy Kengashining 2023 yil 5 may oyidagi 8- sonli majlisida muhokama etilib Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining griftini olishga tavsmiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi "438" – sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan.

ISBN © Amaliy psixologiya darslik / I.O.Xaydarov, Jabborov X.X T.: 2023.- 368 bet.

KIRISH

Yigirma birinchi asr fan va texnikaning yangi bir yuksalish pallasiga kirganligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi

munosabatlarni tadqiq etishga mo'jallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lami kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi.

Xuddi shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda. Shu ma'noda psixologiya fanining oldida turgan vazifalar ko'lami va salmog'i kattadir. Biz jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning psixologik mohiyatini psixologiyaning bugungi xolati va istiqboli nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali bu fanning jamiyatdagi o'rnini va imkoniyatlariga baho berishni niyat qildik.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi"¹, deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdilar.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, kursantlar va soha vakillari hukmiga havola etilayotgan ushbu darslik amaliy psixologiyani o'rganish zaruriyati hamda uning tamoyillari haqidagi bilimlarni inobatga olgan holda tayyorlashga harakat qilindi.

Amaliy psixologiya psixologiyaning eng talab qilinadigan sohasi hisoblanadi. Psixologik bilimlarning mustaqil sohasini ifodalovchi amaliy psixologiya ham o'ziga xos xususiyatlar va amalga oshirish qonuniyatlariga ega bo'lgan kasbiy faoliyatdir. "Amaliy psixologiya" fan sifatida turli kurslarni o'rganishda olingan bilimlarni yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Darslik ahamiyati yana shundaki, u mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ularning hayotga, qadriyatlarga, kasb-kori, oilasi, o'z salomatligi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida milliy mafkuramizning asosiy mazmun va mohiyatlari namoyon bo'layotganligi bilan uyg'un tarzda bayon etilganligidir. Zero, mustaqillik psixologiyasini ongi va shuurida aks ettirgan hamyurtlarimiz, birinchi navbatda, yosh avlod kundalik muomalasi va turmush tarzida o'sha millat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi solih amallarga intilaveradi va sog'lom g'oyalarsiz yashay olmaydi.

Keyingi yillarda butun jahon miqyosida, shu jumladan Respublikamizda qaysi soha mutaxassislari bo'lishidan qat'iy nazar ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Diniy ta'lim

¹ Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., 2017. – B. 45.

muassasalari talabalari o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari shaxs psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, shaxs taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to'g'ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur darslikda amaliy psixologiyaning nazariy metodologik asoslari, amaliy psixologiya kasbiy faoliyat sifatida, amaliyotchi psixologning boshqa soha mutaxassislari bilan o'zaro hamkorligi, amaliyotchi psixologning shaxsi va kasbiy faoliyatining modeli, amaliyotchi psixolog faoliyatining kasbiy axloqiy tamoyillari, psixodiagnostika amaliyotchi psixologning amaliy faoliyati uchun asos sifatida, ta'lim muassasida psixolog faoliyatining mazmuni va shakllari, psixokorreksiya ta'lim muassasalarida amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga psixologik yordam, psixologik buzilishlarga ega shaxslarga psixologik yordam, notinch oilalarga psixologik yordam, psixologik treninglar, shaxs taraqqiyoti va kamoli uchun muhim bo'lgan psixologik jarayon kabi qator masalalar yoritilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	2- 4
I-BOB. AMALIY PSIXOLOGIYANING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.....	5-24
1.1.Amaliy psixologiyaning maqsadi, predmeti va vazifalari.....	5-17
1.2.Amaliy psixologiya fanining kelib chiqish tarixi.....	17-19
1.3.Zamonaviy amaliy psixologiya.....	19-21
1.4.Amaliy psixologiya bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar.....	21-24
II-BOB. AMALIY PSIXOLOGIYA KASBIY FAOLIYAT SIFATIDA.....	25 - 63
2.1.Ta'limda amaliyotchi psixologiya va uning texnologiyasi.....	25 - 27
2.2.Psixologik maslahat ishlari haqida	27- 42
2.3.Psixologga murojaatlar.....	42-63
III-BOB. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING BOSHQA SOHA MUTAXASSISLARI BILAN O'ZARO HAMKORLIGI.....	64 -84
3.1.Psixologni boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlari.....	64 - 66
3.2.Amaliy psixologning sohalari.....	66 - 70
3.3. Amaliy psixologiya fanining umumiy va ilmiy metodlari haqida....	70 - 84
IV - BOB. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING SHAXSI VA KASBIY FAOLIYATINING MODEL.....	85 -106
4.1.Amaliy psixologiyada shaxs xususiyatlari va psixik taraqqiyot.....	85 - 91
4.2. Amaliyotchi psixologning huquqi va majburiyatlari.....	91 - 92
4.3. Zamonaviy psixologik xizmat xonasiga qo'yiladigan talablar.....	93 - 104
4.4. Amaliyotchi psixologni rasmiy va me'yoriy hujjatlari.....	104 -106
V-BOB. AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING KASBIY AXLOQIY TAMOYILLARI.....	106 - 111
5.1.Psixologni kasbiy sifatleri.....	106-107
5.2.Psixologning imidji haqida.....	107-109
5.3.Amaliy psixologiya kasbiy faoliyat sifatida.....	109-111
VI-BOB. PSIXODIAGNOSTIKA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING AMALIY FAOLIYATI UCHUN ASOS SIFATIDA.....	112-139
6.1. Psixodiagnostika amaliyotchi psixologning amaliy faoliyati sifatida.....	112-118
6.2.Amaliyotchi psixologning psixodiagnostik tekshiruv bosqichlarini tashkillashtirishi.....	118-122
6.3. Psixologik yordam ko'rsatishda psixodiagnostik ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlari.....	122-139
VII-BOB. TA'LIM MUASSASIDA PSIXOLOG FAOLIYATINING MAZMUNI VA SHAKLLARI.....	140-159
7.1. Psixolog ishini mazmuni.....	140-147
7.2. Amaliy psixologning kasbiy faoliyati modeli.....	147-152
7.3. Amaliy psixolog ishi uchun ijtimoiy buyurtma kontseptsiyasi.....	153-156
7.4. Tashkilotlar tuzilmasidagi psixolog.....	156-159

VIII-BOB. PSIXOKORREKTSIYA TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY PSIXOLOG FAOLIYATINING YO'NALISHI SIFATIDA.....	160-194
8.1. Amaliyotchi psixologning psixokorreksion ishlari.....	160-164
8.2. Korreksion ishlarning asosiy turlari.....	164-166
8.3. Amaliyotchi psixologning psixokorreksion treninglarni tashkil etishi.....	166-194
IX-BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA PSIXOLOGIK YORDAM.....	194-212
9.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga psixologik yordam ko'rsatishda ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olish.....	194-196
9.2. Amaliyotchi psixolog tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari inobatga olishi.....	196-208
9.3. Psixolog tomonidan maktabgacha yosh davridagi o'yinning takomillashuvini kuzatishi va muhljal olishi.....	208-212
X-BOB. PSIXOLOGIK BUZILISHLARGA EGA SHAXSLARGA PSIXOLOGIK YORDAM.....	213-243
10.1. Organik psixik buzilishlar: turlari, sabablari va alomatlari.....	213-218
10.2. Amaliyotchi psixologning endogen, shizofreniya, maniakal-depressiv psixoz bilan kasallangan shaxslarga psixologik yordami.....	218-224
10.3. Nevroz buzilishga ega bo'lgan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatishda psixoantitik yondashuvlar.....	224-243
XI-BOB. NOTINCH OILALARGA PSIXOLOGIK YORDAM.....	244-291
11.1. Notinch oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning xorij tajribalari.....	244-260
11.2. Notinch oilalarga psixologik xizmatni tashkil etishning asosiy shart-sharoitlari.....	261-286
11.3. Notinch oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishga qo'yilgan talablar.....	286-291
XII-BOB. PSIXOLOGIK TRENINGLAR.....	291-312
12.1. Psixologik treningning maqsadi va vazifalari, psixologik treningda yechiladigan muammolar.....	291-297
12.2. Psixologik treninglarni tashkil etish bosqichlari.....	298-305
12.3. Amaliyotchi faoliyatida ko'proq ishlatishi lozim bo'lgan psixotreninglar.....	306-312
XIII-BOB. AMALIY PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY MASALALARI.....	312-359
13.1. Amaliy psixologiya va ommaviy axborot vositalari.....	312-316
13.2. Psixologik xizmatlar va ularning marketing.....	316-319
13.3. Psixologik axborot tushunchasi va uni olish usullari.....	319-326
13.4. Psixoterapiya psixolog kasbi sifatida	326-359
Glossariy.....	360-367

Adabiyotlar	367-368
--------------------------	---------